


“TASDIQLAYMAN”

“O‘zavtosanoat” AJ boshqaruv
raisining o‘rinbosari

F.R.To‘rayev

2024-yil.



**2024-yil davomida “O‘zavtosanoat” AJda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi
faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
HISOBOT**

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024-yilga mo‘ljallangan "yo‘l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	Jamiyatda 2024-yilga mo‘ljallangan "Yo‘l xaritasi" ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo‘linmasi (mas‘ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	Jamiyatning 2021-yil 03-fevraldagi 12-006-sonli buyrug‘i
3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste‘molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.	Jamiyatning veb-saytida aloqa vositalari tashkil etilgan.
4	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	Jamiyatda xodimlar tomonidan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlarini oldini olishga qaratilgan "Yo‘l xaritasi" ishlab chiqilgan, muntazam seminar-treninglar o‘tkazilmoqda.
5	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo‘yicha choralar ko‘rilganligi.	Jamiyatda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari aniqlanmagan.
6	Tashkilot faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarini xavflar tasnifi asosida darajalarga bo‘linganligi.	Jamiyatda xavflar tasnifi ishlab chiqilganligi va tasdiqlangan va uning asosida faoliyatda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo‘lgan sohalar darajalarga bo‘lingan.
7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o‘rganilganligi, bunda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	Jamiyat faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalarida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan holatlar aniqlanmagan.

8	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	"O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashining 2024-yil 6-iyundagi qarori bilan quyidagi ichki idoraviy hujjatlar tasdiqlandi, ya'ni unda: - "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyatining biznes hamkorlarining odob-axloq qoidalarining 12- Biznes hamkorlar va raqobatchilar bo'limida: o'z faoliyatini biznes hamkorlar bilan adolatli biznes tamoyili asosida olib boradi, shuningdek, erkin va ochiq raqobat tamoyilini to'liq qo'llab-quvvatlashi; - "O'zavtosanoat" AJ xodimlarining odob-axloq qoidalarining "Halol raqobat" bo'limida: Jamiyat erkin, adolatli va halol raqobat tamoyillariga rioya qilishi hamda Jamiyat xodimlari Jamiyat tomonidan monopoliyaga qarshi qonunchilikka zid yoki unga qarshi bo'lgan shartnomalar tuzishiga yo'l qo'ymasligi jummalari bilan o'zgartirishlar kiritilgan.
9	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.	Jamiyat va uning tizim korxonalarida xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilgan (2 marotabadan ortiq seminar-treninglar va test sinovlari o'tkazildi).
10	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi.	Jamiyat xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilib kelinmoqda. (2 marotabadan ortiq test sinovlari o'tkazildi).
11	Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi kompayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	Ijtimoiy tarmoqlarda 2 marotaba Jamiyat va uning tizim korxonalarida monopoliyaga qarshi kompayens tizimi faoliyati yuzasidan chiqishlar qilingan.

Izoh: Hisobot taqdim etilishida har bir vazifa bo'yicha amalga oshirilgan ishlar aniq raqamlar va tasdiqlangan isbotlovchi hujjatlar bilan taqdim etilishi lozim.

Kompayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti direktori



Sh.Zunnunov

Ijrochi: Bosh menejer E.Mamanov
(ichki raqam -2206)

